

## JALOLIDDIN RUMIYNING “MA’NAVIY MASNAVIY” ASARIDA NAY VA SO’FIY TIMSOLLARI

**Firuz Buriyeva**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand.

**Odinayeva Farangiz Zafar qizi**

2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14246365>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Sharqning buyuk shoiri Jaloliddin Rumiyning hayoti haqida qisqacha ma'lumot va uning mashhur „*Ma'naviy Masnaviy*“ asaridagi timsollari haqida so'z yuritilgan. Shoir she'riyatidagi markaziy obrazlar bo'lgan nay va so'fiy timsollari majoziy va haqiqiy ma'noda tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** tasavvuf, inson, nay, ruhoniy, diniy, tasavvuf, masnaviy, olam, tushuncha, islom.

## THE FLUTE AND SUFI SYMBOLS IN JALALUDDIN RUMI'S "SPIRITUAL MASNAVI"

**Abstract.** This article provides a brief overview of the life of the great poet of the East, Jalaluddin Rumi, and his symbols in his famous work "Spiritual Masnavi". The flute and Sufi symbols, which are central images in the poet's poetry, are analyzed in a figurative and literal sense.

**Keywords:** Sufism, human, flute, priest, religious, Sufism, masnavi, world, concept, Islam.

## НАЙ И СУФИЙСКИЕ СИМВОЛЫ В «ДУХОВНОМ МАСНАВИИ» ДЖАЛАЛИДДИНА РУМИ

**Аннотация.** В статье собраны краткие сведения о жизни Джалалуддина Руми, великого поэта Востока, и о его символах в его знаменитом произведении «Манави Маснави». Флейта и суфийские символы, являющиеся центральными образами в поэзии поэта, анализируются в переносном и буквальном смысле.

*Ключевые слова: Суфизм, человек, трубка, жрец, религиозный, суфизм, маснави, вселенная, понимание, ислам.*

---

Jaloliddin Rumi (1207-1273) o'zbek, fors va turk xalqlarining ulug' mutafakkirlaridan biri shuningdek sufizmning buyuk namoyandasi va tasavvufiy adabiyotning eng yirik shoirilaridan hisoblanadi. Rumi afsonaviy shaxs bo'lib uning asarlari butun dunyoda keng tarqalgan va hozirgi kunda ham o'qib o'rganilmoqda. Rumiyning har bir asarida chuqur ma'no yotadi, asarlarini o'qigan har bir inson komillik sari va Ollohga bo'lgan sof muhabbat rishtalarini, shuningdek, diniy va falsafiy bilimlarga ega bo'ladi. Rumi insonni o'zining ichki dunyosiga sayohat qilishga qalbni tozalashga Xudoga bo'lgan muhabbatni topishga chaqiradi.

Uning fikrlari xususan, „Muhabbat“ g'oyasi tasavvufning markaziy tushunchasi sifatida bugungi kunda ham ko'plab insonlarni ilhomlantiradi. Rumi she'riyatida tabiat va odamning ruhiy holati o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

Rumi hayoti davomida ko'plab shogirdlar tarbiyalagan shu jumladan, eng yaqin do'sti bo'lgan Shams Tabriziy uning asarlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Rumi ko'proq inson ruhiyatiga urg'u bergan va ko'plab tafakkur maktablarini shakllantirgan mutafakkir hisoblanadi. Uning ta'limoti musiqasi, ayniqsa, „Sema“ marosimlari tasavvufda ruhiy ko'tarilishning ramzi sifatida saqlanib qolgan. Rumiyning fikricha, insonning haqiqiy maqsadi-Xudo bilan bevosita aloqada bo'lish va uning muhabbatini his qilish. Rumiyning ta'limoti Islom dunyosi bilan bog'liq bo'lganligi va she'rlari ko'plab kishilarni tasavvufiy yuksalishiga chaqirgan.

Rumiyning eng mashhur asarlaridan biri „Manavi maslaviy“ ga to'xtaladigan bo'lsak, oltita katta jildlarda iborat ushbu asar „Ma'naviy Masnaviy“ asarida Shams Tabriziy taklifi bilan yozilgan, 26840 baytdan (51370 misradan) Qur'onning 70% ma'nosini o'zida jamlagan va asar 690 ta hadisga sharh, 270 ta turli mavzudagi hikoyalardan iborat. „Ma'naviy masnaviy“ - pahlaviy tilidagi Qur'on ham deb nomlangan.

---

„Ma'naviy Masnaviy“ mavlaviy

### Hast Qur‘ondar zaboni pahlaviy

Azimushsha‘n Qur‘on -Ummul kitob.Olloh taolonning bayonoti.Dunyo va odamning so‘nggi dostoni.Bu kitob din usullari usulining usuli, Haq taologa va haqiqatga yetishish sirlarining kashshofi.Bu buyuk fiqh, Olloh taolo dinining ochiq-oshkor dalili, burhoni va taqvo kitobidir.Jaloliddin Rumiy bu bebaho asarida yuzlab zaruriy masalalar silsilasi jumladan, umumiy ma‘rifat ilohiyot va inson mavjudiyotining xilma-xil qirralari xususida bahs yuritadi.,, Ma'naviy Masnaviy "dagi nay va ruhoniylar timsollari o‘ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi.

### Masnaviy

Bishnav az nay chun hikoyat mekunad,  
Az judoyiho shikoyat mekunad.  
Tinglagil, nay ne hikoyat aylagay,  
Ayriliqlardan shikoyat aylagay.

Tingla, nay qanday hikoyatlarni so‘zlaydi u firqaning, g‘urbatdan shikoyat qilayotir. Nay bu asarda bir ma'noni emas balki, ko‘p ma'noni izohlab kelgan. Bu yerda nayni shikoyati, g‘am timsoli keltirilgan. „Nay" istilohidan muddao, ya‘ni zoti sharif Jaloliddin Rumiy ko‘zlagan maqsad orif va oqillik martabasiga noil bo‘lgan insoni komildir. Nay (forscha) - puflab chalinadigan o‘zbek milliy cholg'u asbobi. Bu asarda esa turli xil timsollar o'rnida kelgan. Yuqoridagi baytning quyi ikkinchi: „Ayriliqlardan shikoyat aylagay" misrasining mazmuni quyidagicha: orif yoxud komil inson ruhoniylar dunyodan ( ya‘ni asl vatanidan uning mangu va barqaror zuhi holi bu foniy olamga inmagan chog‘dagi makonidan judo bo‘lgandan so‘ng, aziyatlar va yozug‘lar to‘la zaminga tushganidan achchiq shikoyat qiladi. „Nay" - komil inson bu maqomda o‘z dardi yoxud o‘tkinchi dunyo dardi uchun fig‘on-u faryod chekayotgani yo‘q.Mavlono hazratlari arabcha „ Sam" ga taalluqli bo‘lgan „tingla" amri vositasida nay sadosiga diqqatni qaratmoqda.

Jaloliddin Rumiyning ta'biri bilan aytganda: "Insonning ichi hurriyat olamidir". Ha, inson qalban hurdir. Ollohga bo‘lgan muhabbat, hayotga bo‘lgan muhabbat ham hurlikdan paydo bo‘lgan shavqdir.

Bu shavq kuydiruvchi ishqqa aylanib, insonning o'zini ham olamlarni o'z ichiga sig'diruvchi buyuk bir xilqatga aylantiradi.

Bo labi damsozi xud gar juftame,  
Hamchu nay man guftaniho guftame  
Gar o'sha damsoz labiga yormen,  
Nay kabi xushroz-u xushguftormen.

Agar o'sha damsoz yorim labiga yetganimda edi, nay misoli ajib qissalar so'ylar edim. Yuqoridagi baytlar sharhida tuproqdan yaralgan jismning Ishq tufayli falaklarga parvoz qilganini, Tur tog'ining Ishq tufayli mayda-mayda bo'lganini kuzatgan edik. Haq visoliga yetmoqning mashaqqati haqida "A'rof" surasining yuqorida keltirilgan 143-oyatida g'oyat ta'sirli voqea bayon etildi.

Haq visoliga yetish qiyin. Ammo Haq bu bilan o'z vaslini oshiqqlaridan batamom mahrum qildi, deyish xato. Qamishlik holatidan maqsad (ya'ni nayning nay bo'lgunga qadar qamishzorda ko'm-ko'k nash'u namo qilganiga ishora) martabayi ahadiyat va olami ruhoniyaatdir (yagonalik), Ollohning yakka-yagonaligiga iymon keltirgan orifning maqomi va ruhoniyaat dunyosi. Orif zot deydi: Olloh irodasining qudratli amri va taqozosi bilan meni ruhoniyaat olamdan judo etib, bu dunyoning hajr va g'urbatiga oshno aylaganlaridan buyon fig'on-u hasratimdan erkag-u ayol nolon va giryondir. Bashari farzandining asli ruhoniyaat olamidir.

Xullas, buyuk mutafakkirning tafakkurida dunyo imtihon sahnasi, inson muvaqqatan (vaqtincha) qoladigan bir mahbas – zindondir. Mahbas va zavol mahali bo'lgan bu dunyoda bir kimsaning o'z shahar-u vatanidan ayro qolib, hijron va g'urbatga giriftor bo'lgach, o'z kindik qoni to'kilgan tuproqni nechog'li orzu etishi bayonga muhtoj emas.

Shunday ekan, Ollohning orifi asl vatani bo'lmish ruhoniyaat olamini batariyqi avlo orzu etishi ayondir. Faqat dunyoda vaqtinchalik qolmoq uchun amr etilgan.

## REFERENCES

1. Muhammad Iste‘lomiyy. Masnaviyga muqaddima..-B.17.
2. Mavlono Jaloliddin Balxiy. Ma‘naviy Masnaviy. Ba taxxex va muqadimmai Muhammad Iste‘lomiyy Texron, 1379.
3. Ma‘naviy Masnaviy 1/499
4. Ma'naviy Masnaviy 2/ 1774
5. Anvar Ahmad. Saodatga yetaklovchi hikmatlar, (birinchi kitob), Toshkent: "Sano-standart" nashriyoti, 2018 — 320-bet.